ISSN 2181-922X

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

O‘ZBEKISTON

2026 Vol. 1

tsuull.uz
uzlc.tsuull.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2026 Vol. 1

tsuull.uz

uzlc.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o‘rinbosari: Nozliya Normurodova

Mas’ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Hamidulla Dadaboyev, Mustafo Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Nurboy Jabborov, Farhod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Saodat Muhamedova, Aftondil Erkinov, Dilorom Ashurova, Uzoq Jo‘raqulov, Zulxumor Xolmanova, Ziyoda Teshaboyeva, Dilnavoz Yusupova, Iroda Azimova, Sulton Normamatov, Zulxumor Ortiqova, Botir Elov, Komil Kalonov, Manzura Abjalova, Rasul Atamurodov

Tahrir hay’ati

Nazef Shahrani (AQSH)
Elizabetta Ragagnin (Italiya)
Ahmadali Asqarov (O‘zbekiston)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)
Akmal Nur (O‘zbekiston)
Almaz Ülvi (Ozarbayjon)
Muzaffar Komilov (O‘zbekiston)
Tanju Seyhan (Turkiya)
Akmal Saidov (O‘zbekiston)
Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Shodmon Vohidov (Tojikiston)

“O‘zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san’at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o‘rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to‘rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko‘rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o‘z konsepsiyasiga ega bo‘lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e’lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e’lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.

O‘zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.uzlc.tsuull.uz

Alisher Navoʻi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov

Deputy Editor in Chief: Nozliya Normurodova

Executive secretary: Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Hamidulla Dadaboyev, Mustafo Bafoev, Samikhon Ashirboev, Nurboy Jabborov, Farhod Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Saodat Muhamedova, Aftondil Erkinov, Dilorom Ashurova, Uzak Jurakulov, Zulkhumor Khalmanova, Ziyoda Teshaboeva, Dilnavoz Yusupova, Iroda Azimova, Sulton Normamatov, Zulkhumor Ortikova, Botir Elov, Komil Kalonov, Manzura Abjalova, Rasul Atamurodov

Editorial Committee

Nazif Shahrani (USA)
Elisabetta Ragagnin (Italy)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)
Akmal Nur (Uzbekistan)
Almaz Ülvi (Azerbaijan)
Muzaffar Komilov (Uzbekistan)
Tanju Seyhan (Turkey)
Akmal Saidov (Uzbekistan)
Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Nicholas Kontovas (Great Britain)
Shodmon Vohidov (Tajikistan)

"Uzbekistan: Language and Culture" is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navoʻi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.uzlc.tsuull.uz

MUNDARIJA

LINGVISTIKA

Munavvara Qurbonova
Bolalar nutqida emotsional deyksisning voqelanishi 6

Nurbek Ahmadjonov
O‘zbek va nemis rahbar-muloqot diskursida nutq odobi va uning lingvistik aspektlari 24

Aynel Mashadiyeva
Turkiy tillar va dialektlardagi sifatdoshlarning qiyosiy-tarixiy tadqiqi 41

Firuz Abdusalomov
Zamonaviy media diskursida harbiy leksikaning semantik transformatsiyasi 58

Elnare ALİYEVA
Türk Dillerinde İsimlerde Çoğulluğun Bazı Özellikleri 71

ADABIYOTSHUNOSLIK

Almaz Ülvi BİNNƏTOVA
Ensiklopedik Təfəkkürə Malik Mənəviyyat Memarı (İsrafil Məmmədovun “Uç, göyərçinim, uç” əsəri haqqında ədəbi qeydlər).....83

Mohida Qodirova
Tarixiy manbadan badiiy talqinga: Esondavlat begim obrazining ingliz tarixiy romanlaridagi interpretatsiyasi 95

TARJIMASHUNOSLIK

Yorkinoy Nasirdinova
“La Fermeté des faibles” – So‘fi Olloyorning “Sabot ul-ojizin” pandnoma asarining ilk fransuzcha tarjimasi.....107

Ilhom Xolmuminov
Badiiy hikoya tarjimasining kognitiv mexanizmlari va paradigmatik modellashtirish 119

SOTSIOLOGIYA

Komil Kalanov
Sun’iy intellekt texnologiyalarining sotsiologik diskurs tahlili 133

ETNOLOGIYA. ETNOGRAFIYA. ANTROPOLOGIYA

Adhamjon Ashirov
Samarqand bozorlari tarixi va o‘ziga xos xususiyatlari 156

CONTENT

LINGUISTICS

Munavvara Kurbanova
The realization of emotional deixis in children's speech 6

Nurbek Ahmadjonov
Speech Etiquette and its Linguistic Expression in Uzbek and German Leadership-Communication Discourse 24

Aynel Mashadieva
Participles in Focus: a Comparative-Historical Study in Turkic Languages and Dialects 41

Firuz Abdusalomov
Semantic Transformation of Military Lexicon in Contemporary Media Discourse 58

Elnare ALİEVA
Particular Features of Noun Pluralization in Turkic Languages 71

LITERATURE

Almaz Ulvi BİNNATOVA
Encyclopedic Thinking and the Artistic Representatıon of Spiritual Memory (Literary notes on Israfil Mammadov's work "Fly, my dove, fly").....83

Mohida Qodirova
From Historical Source to Artistic Interpretation: the Portrayal of Esondavlat Begim in English Historical Novels.....95

TRANSLATION STUDIES

Yorkinoy Nasirdinova
"La Fermeté des faibles": The First French Translation of Sufi Olloyor's Didactic Work *Sabot ul-ojizin*.....107

Ilhom Kholmuminov
Cognitive Mechanisms and Paradigmatic Modeling of Literary Translation.....119

SOCIOLOGY

Komil Kalanov
Sociological Discourse Analysis of Artificial Intelligence Technologies .133

ETHNOLOGY. ETHNOGRAPHY. ANTHROPOLOGY

Adhamjon Ashirov
The History and Distinctive Features of Samarkand Markets 156

ISSN 2181-922X 107—118

TARJIMASHUNOSLIK
TRANSLATION STUDIES

“La Fermeté des faibles” – So‘fi Olloyorning “Sabot ul-ojizin” pandnoma asarining ilk fransuzcha tarjimasi

Yorkinoy Nasirdinova[1]

Abstrakt

Mazkur maqolada Markaziy Osiyo tasavvuf adabiyotining muhim namunasidan biri bo‘lgan So‘fi Olloyorning “Sabotul ojizin” asarining fransuz tiliga tarjimasi va uning ilmiy talqini tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida asarda uchraydigan tasavvufiy tushunchalar fransuz tilida qanday ifodalangani hamda tarjima jarayonida yuzaga kelgan semantik va interpretativ o‘zgarishlarni aniqlash asosiy maqsad qilingan. Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy, tarjimashunoslik va germenevtik metodlardan foydalanildi. Asosiy e’tibor fransuz sharqshunoslari Alexandre Papas va Marc Toutant tomonidan amalga oshirilgan tarjima va uning ilmiy izohlariga qaratildi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, fransuzcha tarjimada tasavvufiy terminlarning katta qismi izohli yoki interpretativ model orqali berilgan bo‘lib, bu matnni G‘arb o‘quvchisi uchun tushunarli bo‘lishini ta’minlagan. Shu bilan birga, ayrim hollarda asl matndagi mistik-ruhiy mazmun nazariy tushunchalar orqali talqin qilingan. Tahlil natijalari fransuz sharqshunosligida Markaziy Osiyo tasavvuf matnlarini o‘rganish jarayonining muhim jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *Sabot ul-ojizin, tasavvuf, Markaziy Osiyo islom madaniyati, fransuz sharqshunosligi, Alexandre Papas, Marc Toutant, tarjimashunoslik, tasavvuf terminologiyasi, interpretatsiya, chig‘atoy adabiyoti.*

Kirish

XVII – XVIII asrlarda yashab ijod etgan mutasavvuf shoir So‘fi Ollohyor o‘z zamonasining mashhur sufiy olimi va ma’naviy tarbiyachisi bo‘lgan. U diniy bilimlarni chuqur o‘rgangan, inson

[1] *Nasirdinova Yorkinoy* – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Qo‘qon universiteti Andijon filiali.
E-mail: nasirdinovayorkinoy@gmal.com
ORCID ID: 0000-0002-6187-8090
Iqtibos uchun: Nasirdinova, Y. 2026. “La Fermeté des faibles” – So‘fi Olloyorning “Sabot ul-ojizin” pandnoma asarining ilk fransuzcha tarjimasi”. *O‘zbekiston: til va madaniyat* 1: 107 – 118.

ruhiy va axloqiy tarbiyasiga katta e'tibor bergan. Uning ilmiy merosi asosan so'fiylik, axloq, iymon va insoniy fazilatlarni rivojlantirishga bag'ishlangan. Uning qalamiga mansub «Sabot ul-ojizin» asari axloqiy-ma'rifiy pandnoma bo'lib, insonning ichki olami, ruhiy poklanishi va ilohiy haqiqatga intilishi kabi murakkab masalalarni badiiy-falsafiy talqin qilgan nodir manba sifatida qadrlanadi [Boysoatov 2023].

Asarning 2026-yil 26-fevralda Alexandre Papas va Marc Toutant tomonidan tayyorlangan fransuz tilidagi tarjimasi «La Fermeté des faibles» nomi bilan nashr etildi. Bu turkiy tasavvufiy merosining xalqaro ilmiy muomaladagi navbatdagi muhim bosqichidir. Kirish qismida tarjimonlar tomonidan ushbu asar modern va zamonaviy Markaziy Osiyodagi eng muhim tasavvufiy risolalardan biri, Buxorodan Qozongacha, Hirotdan Qashqargacha cho'zilgan keng hududda klassik maqom kasb etgan matn sifatida tavsiflanadi; unda arab, fors va turkiy manbalar tutashuvi mujassam ekani, matnni hatto tasavvufiy talqindagi islomiy didaktik pandnomaga qiyoslash mumkin deb ta'riflanadi [Papas, Toutant 2026, 9]. Bu baho tasodifiy emas. Ochiq elektron nashrga yozilgan so'zboshida «Sabotul-ojizin» Movarounnahr madrasalarida XX asrgacha darslik sifatida o'qitilgani, hatto XX asr birinchi choragigacha ayrim boshlang'ich maktablarda ham o'rganilgani aytiladi [So'fi Olloyor 2022, 1].

Asarning matnshunoslik tarixi ham uning ma'naviy vaznini tasdiqlaydi. Professor Rashid Zohid tayyorlagan elektron nashrda 94 ta qo'lyozma, 61 ta toshbosma va boshqa matnlar solishtirilgan, 150 dan ortiq nusxa umumiy tekshiruvdan o'tkazilib, ulardan 25 tasi qiyosiy tahlil uchun tanlangan [So'fi Olloyor 2022, 2–3]. Shuningdek, «Sabotul ojizin»ga yozilgan sharhlar orasida Tojuddin Yolchiqul qalamiga mansub «Risolayi Aziza» hijriy 1221/1806 yilda yozilgani, ya'ni So'fi Olloyor vafotidan atigi 82 yil keyin paydo bo'lgani sababli, muallif tiliga va ma'no doirasiga nisbatan yaqin manba sifatida alohida qimmat kasb etadi [Rashidov 2022, 42–43].

Devin DeWeese esa So'fi Olloyorning forsiy va turkiy asarlari Volga-Ural mintaqasida ham juda mashhur bo'lganini, Qozon qo'lyozma xazinalarida uning ayrim asarlari o'nlab nusxalarda uchrashini ko'rsatadi [DeWeese 2019, 145]. Leila Almazova ma'lumotiga ko'ra, Tatar muhitida keng shuhrat topgan Tojuddin Yalchigul aynan «Subat al-'Ajizin»ga «Risala-i Gaziza» sharhini yozgan va uning ilmiy shakllanishi Dog'iston, Diyorbakir, Istanbul kabi markazlar bilan bog'langan [Almazova 2021, 24].

Mazkur maqolaning maqsadi ilk fransuzcha tarjimada ayrim tayanch tasavvufiy tushunchalarning tarjimasi va talqinlarini tahlil qilishdir. Tahlil fransuzcha nashrning ochiq manbalarda mavjud kirish qismi, annotativ tavsifi va mundarijasi, shuningdek, asarning ochiq elektron turkiy nashri, sharhlar haqidagi matnshunoslik tadqiqoti hamda tarjimonlarning oldingi asarlariga tayanadi. Shu bois u to‘liq satrma-satr qiyos emas, tarjimaning konseptual asosi, bo‘lim sarlavhalari va terminologik tanlovlari kuzatiladi. Papas va Toutant tarjimasi filologik jihatdan puxta va o‘qiladigan ilmiy vositachilik namunasi bo‘lsa-da, ayrim hollarda u tasavvufiy terminlarning ichki islomiy semantik qatlamini qisqartirib, ularni fransuzcha tushunish ufqiga yaqinlashtiradi.

Asosiy qism

Tarjimaning kirish qismida taqdim etilgan ma’lumotlar tarjimonlarning ushbu mavzuni chuqur o‘rganganliklarini ko‘rsatadi. Unda “Thabât al-‘âjizîn” asarining tarixiy tarqalishi, qo‘lyozma an’analari, madrasalarda o‘qitilganligi hamda matn atrofida shakllangan sharhlash an’analari haqida batafsil ma’lumotlar beriladi. Bu ma’lumotlar asarning Markaziy Osiyo musulmonlari diniy-ma’rifiy hayotida muhim o‘rin tutganini tasdiqlaydi. Ular «Sabotul ojizin»ni Markaziy Osiyo musulmonlari uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega xalq tilidagi she’riy matn sifatida ko‘rsatadilar; u «o‘qilgan, yod olingan va sharhlangan» uzoq umrli diniy-poetik asardir [Papas va Toutant 2026, 9]. Bu ta’rif aslida Rashid Zohid tayyorlagan nashr ma’lumotlari bilan uyg‘un: asarning madrasalarda darslik bo‘lgani, unga ko‘plab lug‘atlar va sharhlar yozilgani, matn atrofida alohida sharhlash an’anasi shakllangani ochiq qayd etiladi [So‘fi Olloyor 2022, 1–2].

Shu bilan birga, tarjimonlar asarga nisbatan ilk nazariy asosni ham taklif qiladilar. Mundarijada kirishning ikki markaziy bo‘limi «Mystique de la loi» va «Poétique du sermon» deb nomlanlangan [Papas va Toutant 2026, 281]. Bu ikki formulada tarjimaning asosiy g‘oyasi mujassam: bir tomondan matn «qonun» bilan uzviy bog‘liq tasavvuf, ya’ni shariatdan ajralmagan ruhiylik sifatida o‘qiladi; ikkinchi tomondan u «va’z poetikasi», ya’ni lirik bo‘lish bilan birga, kuchli nasihat va ta’sir o‘tkazish vazifasiga ega nutq shakli sifatida talqin qilinadi. Mazkur talqin tarixiy jihatdan asosli. Darhaqiqat, asarda *karomat, shafoat, qiyomat, tavakkul, riyo, ixlos, nafs, murshid, darvishlik* kabi mavzular birin-ketin keladi va matn o‘quvchini nafaqat bilishga, balki ma’naviy intizomga chorlaydi.

Biroq ayni paytda bu ikki formula asarning boshqa qatlamlarini – masalan, uning madrasa darsligi sifatidagi mnemonik tuzilishini, o‘quvchilar uchun yodlashga qulay nazm shaklini, sharhlash va lug‘atlashtirishga sabab bo‘lgan filologik murakkabligini – ikkinchi planga surib qo‘yishi mumkin. Ya’ni tarjimonlarning ramkasi to‘g‘ri, ammo u matnning butun tarixiy funksiyasini emas, muayyan qirrasi – qonuniy-axloqiy tasavvuf va va’zkorlik qirrasini kuchliroq yoritadi.

Tarjima tanlovlarini anglash uchun tarjimonlarning ilmiy tarjimai holi ham muhimdir. Alexandre Papasning 2010-yildagi «Mystiques et vagabonds en islam» asari uch qalandar sufiy hayot yo‘lini kuzatishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda muallif Bosfor bo‘yidan Samarqandgacha cho‘zilgan turk-forsiy mistik makonning ichki dinamikasini ko‘rsatadi [Papas 2010, 10]. Shu kitobning bosh sahifalarida muallifning bundan avvalgi «Soufisme et politique entre Chine, Tibet et Turkestan» nomli asari ham qayd etiladi [Papas 2010, 3]. Papasning 2018-yildagi «Ainsi parlait le derviche» kitobida esa marginallik musulmon tarixshunosligida ijtimoiy chekkalik va mavjud tartib bilan uzoq davomli uzilish sifatida ta’riflanadi [Papas 2018, 11]. Yuqoridagi asoslar A. Papas nafaqat tasavvuf tarixi, balki dervishlik, ijtimoiy periferiya, diniy nutq va musulmon mistikasining ijtimoiy shakllari bilan chuqur shug‘ullangan olimdir.

Marc Toutantning ilmiy profili esa ko‘proq sharqiy turkiy matn, Chig‘atoy adabiyoti va Temuriylar davri madaniy-siyosiy muhitini o‘rganishga qaratilgan. Uning «Un empire de mots» asari sarlavhasining o‘ziyoq tadqiqot markazida hokimiyat, madaniyat va sufiylikning so‘nggi Temuriylar davridagi o‘zaro aloqasi turganini ko‘rsatadi; kitob mundarijasida Navoiy davrining «Temuriylar renessansi», taqlidning madaniy roli va Navoiy shaxsining siyosiy hamda madaniy markaziyligini yorituvchi bo‘limlar mavjud [Toutant 2016, 1–34]. Uning Navoiy va Nizomiy munosabatlariga bag‘ishlangan maqolasi ham Chig‘atoy matni, intertekstual taqlid va diniy-siyosiy mazmun masalalariga e’tiborini tasdiqlaydi [Toutant 2015, 81–103].

Mazkur ilmiy hamkorlik tarjimaning asosiy yutuqlari bilan bir qatorda ayrim cheklovlarini ham anglash imkonini beradi. Uning muhim jihati shundaki, matn bir vaqtning o‘zida ham tarixiy-doktrinal, ham poetik-filologik nuqtayi nazardan talqin etiladi. Bunday yondashuv asarning mazmuniy qatlamlarini kengroq ochishga xizmat qiladi. Biroq tarjima jarayoni har qanday ilmiy faoliyat singari mutlaq xolislikni to‘liq ta’minlay olmaydi; u muqarrar ravishda tarjimonlarning ilmiy qarashlari va tadqiqot

tajribasi doirasida amalga oshiriladi. Xususan, Papasning dervishlik fenomeni hamda diniy ijtimoiy chekkalik masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlari, Toutantning esa chig‘atoy adabiyoti va poetikasiga oid ishlari “Sabot ul-ojizin” matnini ham ma’lum konseptual kategoriyalar — masalan, qonuniy mistika, murshidlik, dervishlik, va’z an’anasi, poetika, taqlid va intertekstual aloqalar doirasida talqin qilishga moyillikni kuchaytiradi. Albatta, bunday ilmiy kapital tarjimani mazmunan boyitadi va matnni chuqurroq anglashga yordam beradi. Shu bilan birga, tadqiqotchi ushbu epistemik fonni ham inobatga olishi, tarjima talqinlarining shakllanishida tarjimonlarning ilmiy qarashlari qanday rol o‘ynaganini nazardan chetda qoldirmasligi lozim.

Fransuzcha sarlavha – «La Fermeté des faibles» – tarjimaning birinchi va eng muhim interpretati harakatidir [Papas & Toutant 2026, 5]. «Sabot»ning «fermeté» tarzida berilishi juda muvaffaqiyatli: unda sobitlik, qat’iyat, ma’naviy mustahkamlik ohangi saqlanadi. «‘Âjizîn»ning «faibles» deb tarjima qilinishi esa matnni umumlashtiradi: u zaif, ojiz, irodasi sust, ruhiy jihatdan chayqaluvchan barcha o‘quvchilarni qamrab oladigan didaktik ufqni ochadi. Biroq shu yerning o‘zida bir mayin semantik siljish ham sodir bo‘ladi. «Ojiz» so‘zi islomiy-axloqiy lug‘atda nafaqat «zaif», balki «qodir bo‘lmagan», «muhtoj», «ma’naviy tayanchga ehtiyoj sezuvchi» ma’nolarini ham olib yuradi. «Faibles» esa fransuz tilida kengroq, lekin bir oz mavhumroq umumiy antropologik kategoriyaga aylanadi. Demak, sarlavha o‘qiluvchanlikni kuchaytiradi, ammo asl unvondagi ma’naviy-irodaviy muhtojlik qatlamini birmuncha silliqlaydi.

Asarning ochiq elektron nashrida «Karamati avliyo bayoni» bo‘limi avliyo karomatining haqligini tasdiqlaydi, karomatni «xoriqi odat» sifatida ta'riflaydi va uni mo'jiza, irhos, ma’unat hamda istidrojdan farqlaydi [So‘fi Olloyor, 19]. Demak, bu bo‘lim oddiy «mo‘jizaviy hodisa» haqida emas; u karomatning aqidaviy maqomini, tasnifini va haqiqiy avliyoning axloqiy mezonlarini belgilaydi. Fransuzcha mundarijada esa u «Les miracles des saints» tarzida berilgan [Papas va Toutant 2026, 281]. Bu tanlov fransuz o‘quvchisi uchun darhol tushunarli. Biroq asl bo‘limda karomat boshqa «xoriqi odat» hodisalaridan farqlanadi va u shariat hamda taqvo bilan shartlanadi. Sarlavhada bu murakkablikning hammasini berish imkonsiz. Demak, bu yerda «xato» emas, teologik tasnifni tanishroq diniy kategoriyaga yig‘ib beruvchi soddalashtirish mavjud.

«Payg‘ambarlar shafoatlarining haqligi bayoni» bo‘limida So‘fi Olloyor shafoatning Alloh izni bilan haq ekani, qiyomat kunidagi dahshat va najot mavzusini ketma-ket ochadi [So‘fi Olloyor 2022, 29]. Fransuzcha mundarijada esa esxatologik blok alohida-alohida bo‘linib beriladi: «La réalité du Jugement dernier», «La balance des actions lors du Jugement dernier», «Le pont Sirât», «Le Bassin d’abondance», «L’intercession», «Le paradis et l’enfer» [Papas va Toutant 2026, 281–282]. Tarjimonlar qiyomat kuniga oid ketma-ketlikni aniq konseptual birliklarga ajratib, fransuz o‘quvchisiga matn mantiqini qulaylashtiradi. Ayniqsa, «Sirât» terminini saqlab qolish va «Bassin d’abondance» bilan ḥawz Kavsar obrazini tushuntirish terminologik ehtiyotkorlikni ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, “L’intercession” atamasining tanlanishi asl sarlavhadagi “haqligi” unsurini – ya’ni shafoatning haqiqiyligi, e’tiqodiy jihatdan to‘g‘riligi va qonuniyligini – sarlavha darajasida to‘liq aks ettirmaydi. Asl matnda bu tushuncha shunchaki nom sifatida emas, balki doktrinal tasdiq, ya’ni aqidaviy jihatdan tasdiqlangan haqiqat sifatida bayon qilinadi. Fransuzcha sarlavhada esa faqat hodisaning o‘zi – shafoat nomi keltiriladi.

Bu farq dastlab kichik tafovutdek ko‘rinishi mumkin. Biroq u matndagi e’tiqodiy va polemik ohangni ma’lum darajada yo‘qotadi. Shuni yana bir bor ta’kidlash kerakki, bu yerda noto‘g‘ri tarjima yoki noto‘g‘ri ekvivalent haqida so‘z yuritilmayapti. Tarjimonlar qisqa va lo‘nda shaklni tanlashgan. Biroq aynan shu ixchamlik natijasida asl matndagi aqidaviy bayonning bahs-munozaraviy qatlami qisman ko‘zdan chetda qolishi mumkin.

Asarning 39–40-betlarida «Har bir ishda yetuk ustoz istamakning bayoni» beriladi [So‘fi Olloyor 2022, 40]. Mazkur baytlar tasavvufiy ta’limotda muhim o‘rin tutuvchi murshid–murid munosabatlari g‘oyasini ifodalaydi. Shoir o‘z nutqini “tolib”, ya’ni ruhiy kamolotga intiluvchi shogirdga murojaat bilan boshlaydi. Bu yerda “tolib” tushunchasi tasavvufiy termin bo‘lib, u ma’naviy haqiqatni izlovchi insonni anglatadi. Muallif dunyoviy manfaatlardan yuz o‘girib, “Ka’bai maqsud” sari yo‘l olishni tavsiya qiladi. Bu ibora tasavvufiy adabiyotda ilohiy haqiqat yoki Allohga yaqinlik ramzi sifatida ishlatiladi.

Baytlarda tasavvufiy yo‘lning murakkabligi alohida ta’kidlanadi. “Ajab yo‘ldir, aning poyoni yo‘qdir” satri tasavvufiy kamolot jarayoni cheksiz ruhiy safar ekanini bildiradi. Bu safar davomida inson turli xavf-xatarlarga duch kelishi mumkinligi “Xatarlik yerlarining soni yo‘qdir” misrasi orqali ifodalanadi. Muallif bu orqali

ruhiy yo‘lda nafs, shaytoniy vasvasalar va jaholat kabi to‘siqlar mavjudligini eslatadi.

Matnda murshidning zarurligi, ayniqsa, kuchli ta’kidlanadi. “Qo‘lungni topshir avval qodiyg‘a” misrasi tasavvufiy an’anadagi bay’at marosimini eslatadi, ya’ni murid o‘zini murshidga topshirib, uning ruhiy rahbarligini qabul qiladi. Bu fikr naqshbandiya va boshqa tasavvuf tariqatlarida keng tarqalgan “ustozsiz yo‘l topib bo‘lmaydi” degan tamoyil bilan uyg‘un.

A. Papas va M. Toutant tomonidan amalga oshirilgan fransuzcha tarjimada tasavvufiy terminologiyani ifodalash masalasi alohida ilmiy e’tiborga loyiq. Tarjimonlar matndagi asosiy ruhiy-ma’rifiy tushunchalarni fransuz o‘quvchisi uchun tushunarli shaklda berishga intilgan bo‘lsalar-da, ayrim hollarda ular tanlagan ekvivalentlar asl matndagi tasavvufiy semantikaning barcha qatlamlarini to‘liq qamrab olmaydi. Shu jihatdan, tarjimada uchraydigan «maître parfait», «aspirant» va «cheminant» kabi birliklar alohida tahlilni talab etadi.

Avvalo, «maître parfait» birikmasi tasavvufiy matnlarda uchraydigan pir, murshid yoki ayrim kontekstlarda mardi komil tushunchalarini ifodalash uchun qo‘llangan. Mazkur ekvivalent murshidning ruhiy yetukligi va komillik darajasini ta’kidlashi bilan ahamiyatlidir. Biroq u tasavvuf an’anasidagi murshid tushunchasining barcha ma’no qirralarini, xususan, tariqat ichidagi institutsional mavqeyini, silsila bilan bog‘liqligini va ruhiy irshod vakolatini to‘liq aks ettirmaydi. Shu bois bu tarjima semantik jihatdan yaqin bo‘lsa-da, istilohning maxsus diniy-ma’rifiy yukini ma’lum darajada umumlashtiradi.

Ikkinchidan, «aspirant» termini asl matndagi tolib tushunchasiga nisbatan qo‘llangan bo‘lib, u izlovchi, intiluvchi, ilmiy kamolot sari harakat qiluvchi shaxs ma’nolarini anglatadi. Biroq ruhiy mazmun biroz yo‘qoladi. Mazkur ekvivalent tarjima nuqtayi nazaridan muvaffaqiyatli ko‘rinadi, chunki u tolibning asosiy semantik belgisini – maqsad sari ichki intilishni – saqlab qoladi. Shu bilan birga, tasavvufiy kontekstda tolib faqat umumiy ma’nodagi intiluvchi emas, balki ma’naviy yo‘lga kirishga tayyorlangan, ichki poklanish va ruhiy tarbiya zaruratini anglagan shaxs hamdir. Fransuzcha ekvivalentda ana shu maxsus tasavvufiy tayyorgarlik ohangi yo‘qolgan.

Uchinchidan, «cheminant» birligi tasavvufdagi solik tushunchasiga yaqin turadi. Solik – ruhiy yo‘lga kirgan, tariqat bosqichlarini bosib o‘tayotgan, nafsni poklash va haqiqat sari

intilish jarayonida bo‘lgan shaxsdir. Fransuzcha cheminant so‘zi “yo‘lovchi” ma’nosini anglatib, tasavvuf adabiyotidagi “yo‘l” metaforasini saqlab qoladi. Bu jihatdan u poetik va obrazli ekvivalent sifatida e’tiborga loyiq. Biroq ushbu birlikda solik tushunchasining diniy-irfoniy mazmuni, ya’ni tariqat yo‘lidagi maqom va holatlar tizimi bilan bog‘liqligi yetarli darajada sezilmaydi. Natijada istilohning maxsus tasavvufiy mazmuni umumiylashtiriladi.

A. Papas va M. Toutant tarjimasida qo‘llangan mazkur ekvivalentlar asl matndagi tushunchalarni fransuz tilida ilmiy muomalaga mos shaklda ifodalashga xizmat qiladi. Biroq ular ko‘proq interpretativ ekvivalentlar bo‘lib, asl istilohlarning diniy, tariqiy va irfoniy qatlamlarini to‘liq emas, balki qisman aks ettiradi. Bu holat tarjimaning kamchiligi sifatida emas, balki tasavvufiy matnni boshqa madaniy-lisoniy makonga ko‘chirish jarayonidagi tabiiy semantik siljish sifatida baholanishi maqsadga muvofiq.

Asarning 69-betida «Agar nafsing hamisha tutmasang kam, durust ixlos birla bo‘lmagay ham» deyilgan bo‘lsa, 91-betda nafsning yeb-ichishga, dunyoviy tortishuvga va ruhdan yuz o‘girishga moyil qatlam sifatidagi tavsifi beriladi [So‘fi Olloyor 2022, 69, 91]. Demak, «nafs» bu yerda nafaqat psixologik «men», balki ochko‘zlik, shahvat, g‘aflat, o‘zini ustun ko‘rish va ruhiy tarbiyani izdan chiqaruvchi ichki mayl majmuasidir. Fransuzcha mundarijada mazkur mazmun «S’opposer à l’ego» deb berilgan [Papas va Toutant 2026, 283]. Aynan shu nuqta tarjimaning eng qiziqarli, bir oz bahsli tanlovlaridan biridir.

«Ego» fransuz o‘quvchisi uchun juda tushunarli, shu bois tarjima o‘quvchini darhol ichki kurash semantikasiga olib kiradi. Biroq «nafs»ning tasavvufiy maydoni «ego»dan kengroq: unda istak, g‘aflat, kibr, ruhga qarshi turgan ichki mayl qatlamlari mujassam. «Ego» esa ko‘proq modern psixologik subyektga ishora qiladi. Demak, bu tanlov o‘qiluvchan, ammo ma’lum darajada zamonaviylash-tiruvchi moslashtirishdir. Tarjimonlar nafsni noto‘g‘ri talqin qilmagan, ammo uning Qur’oniy-tasavvufiy antropologiyasini toraytirgan.

«Qazoga rozi bo‘l, sabr et baloga» degan qat’iy buyruq asarning 99-betida joylashgan bo‘lib, undan keyingi baytlarda banda va ilohiy mulk o‘rtasidagi nisbat, qazo oldida bo‘ysunish va ne’matga shukr qilish mazmuni ochiladi [So‘fi Olloyor 2022, 100]. Fransuzcha mundarijada bu qatlam «Le cheminant consent au destin et endure les épreuves», keyinroq esa «Consentir au destin et se préparer à des calamités» tarzida ifodalangan; tavakkul esa

«L’abandon confiant en Dieu» deb nomlangan [Papas va Toutant 2026, 282–283]. Bu yerda tarjimonlar tushunchalarni faqat leksik ekvivalent bilan emas, balki ma’no harakati bilan ham berishga uringanini ko‘rish mumkin. «Consentir» rozi bo‘lishning faqat passiv emas, ichki qabul va ma’naviy murosaga kelish ma’nosini ifodalaydi. «Abandon confiant en Dieu» esa tavakkulni bekorchilik emas, ishonchli topshirish shaklida beradi.

Biroq «destin» tanlovi ham muayyan savollar tug‘diradi. «Qazo» islomiy aqidada ilohiy taqdir va ilohiy hukm semantikasi bilan yuklangan. «Destin» esa fransuz tilida diniy kontekstdan tashqarida ham keng ishlatiladigan, ba’zan dunyoviy fatalizm ohangini ham anglatadigan so‘z. Tarjima kontekstida bu, albatta, tushunarli yechim. Lekin ayni paytda ilohiy iroda va qullik nisbati sarlavha darajasida bir oz xiralashadi. Demak, bu yerda ham tarjima o‘quvchiga ma’noni yaqinlashtiradi, lekin tushunchaning aqidaviy zichligini qisman yengillashtiradi.

72-betdagi «Darvishlik bayoni» bo‘limi «quruq ot»ga aldanish, ya’ni darvish nomini ko‘tarib yurib, bunday nomga munosib bo‘lmagan holatni tanqid qilishdan boshlanadi [So‘fi Olloyor 2022, 72]. Bu bo‘limda darvishlik romantik maqom emas, mas’uliyat va ichki tozalanish mezoni sifatida beriladi. Fransuzcha mundarijada esa u «La condition de derviche» ko‘rinishida ifodalangan [Papas va Toutant 2026, 283]. Bu ekvivalent darvishlikni muayyan holat va maqom sifatida ko‘rsatadi. Lekin asl sarlavha va dastlabki baytlarning ogohlantiruvchi ohangi – «nom» bilan «haqiqat» o‘rtasidagi ziddiyat – fransuzchada yumshaydi. «Condition» ifodasi tavsiflovchi tus oladi; asli esa kuchli undovga ega. Bu ham tarjimaning umumiy strategiyasini ko‘rsatadi.

A.Papas va M. Toutantning tarjimasi bir necha parallel vazifani bajaradi. Birinchidan, tarjimonlar matnni fransuz ilmiy jamoatchiligi uchun o‘qilishi qulay holga keltiradi. «Miracles», «intercession», «ego», «destin», «maître parfait», «condition de derviche» kabi atamalar o‘quvchini begona leksik mavxumlikka tashlab qo‘ymaydi. Ikkinchidan, tarjima asarning ichki arxitekturasini juda aniq ko‘rsatadi: qiyomat kun bosqichlari, murshidlik, nafs bilan kurash, tavakkul, darvishlik, taqdirga rozi bo‘lish kabi motivlar o‘zaro bog‘langan konseptual xaritaga aylantiriladi. Uchinchidan, tarjima matnni tarixiy tasavvufshunoslik va sharqiy turkiy filologiya kesishgan nuqtada o‘qish imkonini beradi.

Biroq, tarjima jarayonida so‘zlarni o‘qishga qulay va tushunarli bo‘lgan muqobili bilan berish ba’zan uning e’tiqodiy

hamda ichki islomiy ma’no qatlamining zichligini kamaytirishi mumkin. Masalan, “nafs” tushunchasining “ego”ga, “qazo” tushunchasining “taqdir”ga, “darvishlik bayoni”ning esa “holat” tarzida talqin qilinishi shunday misollardandir. Bu holat kamchilik emas, balki turli madaniyatlar o‘rtasida ma’no vositachiligini amalga oshirish jarayonining tabiiy oqibatidir. Shunga qaramay, ilmiy o‘quvchi bunday tarjima va talqinlarning ma’no chegaralarini anglab, matnni tanqidiy yondashuv bilan o‘qishi zarur.

Xulosa

“Sabot ul-ojizin” asarining fransuz tiliga tarjima qilinishi Markaziy Osiyo tasavvufiy merosini jahon ilmiy muhitiga olib chiqishda muhim ilmiy hodisa hisoblanadi. A. Papas va M. Toutantning chuqur ilmiy tayyorgarligi ushbu nashrga mustahkam nazariy asos yaratadi. Tarjima asarning aqidaviy mazmuni hamda va’z va she’riyat uyg‘unligiga asoslangan badiiy tabiatini aniq yoritib beradi. Qiyomat tasviri, murshidlik, tavakkul, nafs bilan kurash va darvishlik kabi mavzular fransuz o‘quvchisi uchun izchil tushunchalar tizimi sifatida bayon qilingan.

Shu bilan birga, matnni o‘qishga qulay va ilmiy jihatdan tartibli qilishga intilish ayrim tasavvufiy tushunchalarning ma’no doirasini toraytirishi mumkin. Masalan, “nafs” tushunchasining “ego” tarzida, “qazo”ning “destin – taqdir” sifatida, “darvishlik”ning esa “condition – holat” sifatida talqin qilinishi yoki “shafoatning haqligi” kabi aqidaviy mazmunning qisqartirib berilishi tarjimaning talqin bilan bog‘liq xususiyatini ko‘rsatadi. Bu yerda masala har qanday tarjima jarayonida ma’noni bir madaniy muhitdan boshqasiga ko‘chirishda muayyan tanlovlar qilinishi haqida bormoqda. Natijada ayrim ma’no qatlamlari yanada ravshanlashsa, ayrimlari tabiiy ravishda ikkinchi planga o‘tadi.

Shunday bo‘lsa-da, A.Papas va M.Toutant tomonidan amalga oshirilgan tarjima “Sabot ul-ojizin” asarini fransuz tilida o‘rganish uchun ishonchli boshlang‘ich manba bo‘lib xizmat qiladi. Kelgusida esa matnning to‘liq mazmuni asosida, ayniqsa, nafs, ixlos, riyo, tavakkul, fano, ma’rifat va murshid kabi tasavvufiy tushunchalarning tarjima usullarini yanada chuqurroq tadqiq etish muhim ilmiy vazifa bo‘lib qoladi.

Adabiyotlar

Almazova, Leila. 2021. “Mobile Actors in the Islamic Education of Post-Soviet Tatarstan.” In *Cultures of Islam: Vernacular Traditions and Revisionist Interpretations across Russia*, edited by Marlene Laruelle and Jesko Schmoller, 21–37. Washington,

DC: George Washington University.
Boysoatov, Muzaffar. 2023. “‘Sabotul-ojizin’ hikoyatlarining manbalari va matniy tadqiqi.” *ORIENSS* 3. ORIENSS maqolasi
DeWeese, Devin. 2019. “Persian and Turkic from Kazan to Tobolsk: Literary Frontiers in Muslim Inner Asia.” In *The Persianate World: The Frontiers of a Eurasian Lingua Franca*, edited by Nile Green, 131–156. Oakland, CA: University of California Press.
Papas, Alexandre. 2010. *Mystiques et vagabonds en islam: portraits de trois soufis qalandar*. Paris: Cerf.
Papas, Alexandre. 2018. *Ainsi parlait le derviche: Les marginaux de l’islam en Asie centrale, XVe–XXe siècle*. Paris: Cerf.
Papas, Alexandre, and Marc Toutant. 2026. *Sufi Allahyar, La Fermeté des faibles: Traité versifié de soufisme centrasiatique*. Paris: Les éditions du Cerf. Academia.edu manbasi
Rashidov, Z. F. 2022. “‘Sabotul ojizin’ sharhlari.” *Oltin bitiglar* 2: 42–54.
So‘fi Olloyor. 1991. *Sabotul-ojizin*. Nashrga tayyorlovchi Rashid Zohid. Toshkent: Ziyouz elektron kutubxonasi. Ziyouz elektron kutubxonasi
Toutant, Marc. 2015. “La réponse du poète chaghatay Nawā’ī au poète persan Niẓāmī.” *Cahiers d’Asie centrale* 24: 81–103.
Toutant, Marc. 2016. *Un empire de mots: Pouvoir, culture et soufisme à l’époque des derniers Timourides au miroir de la Khamsa de Mīr ‘Alī Shīr Nawā’ī*. Leuven: Peeters.

“La Fermeté des faibles”: The First French Translation of Sufi Olloyor’s Didactic Work *Sabot ul-ojizin*

Nasirdinova Yorkinoy[1]

Abstract

This article studies the French translation and scholarly interpretation of “Thabât al-‘âjizîn” (The Firmness of the Weak) by Sûfî Allâhyâr, one of the most influential Sufi texts of Central Asian Islamic literature. The main objective of the study is to analyze how key Sufi concepts present in the original text are rendered in French and to identify the semantic and interpretative shifts that occur during the translation process. The research applies comparative analysis, translation studies

[1] *Nasirdinova Yorkinoy* – PhD in Philology, Associate Professor, Kokand University Andijan Branch, Department of Languages in Medicine.
E-mail: nasirdinovayorkinoy@gmail.com
ORCID ID: 0000-0002-6187-8090
For citation: Nasirdinova, Y. 2026. “La Fermeté des faibles”: The First French Translation of Sufi Olloyor’s Didactic Work “Sabot ul-ojizin”. *Uzbekistan: Language and Culture* 1: 107 – 118.

methodology, and hermeneutic interpretation. Special attention is given to the French translation prepared by Alexandre Papas and Marc Toutant, as well as to their scholarly commentary. The analysis demonstrates that many Sufi concepts are conveyed through explanatory or interpretative translation strategies, which facilitate comprehension for a Western academic readership. However, in certain cases the mystical experiential dimension of the original text is reframed in more analytical or theoretical terms. The study highlights the role of translation as both linguistic transfer and scholarly mediation in the reception of Central Asian Sufi literature in French Orientalist scholarship.

Key words: *Thabât al-ʻâjizîn, Sufism, Central Asian Islamic culture, French Orientalism, Alexandre Papas, Marc Toutant, translation studies, Sufi terminology, interpretation, Chagatai literature.*

References

Almazova, Leila. 2021. "Mobile Actors in the Islamic Education of Post-Soviet Tatarstan." In *Cultures of Islam: Vernacular Traditions and Revisionist Interpretations across Russia*, edited by Marlene Laruelle and Jesko Schmoller, 21–37. Washington, DC: George Washington University.

Boysoatov, Muzaffar. 2023. "'Sabotul-ojizin' hikoyatlarining manbalari va matniy tadqiqi." *ORIENSS* 3. ORIENSS maqolasi

DeWeese, Devin. 2019. "Persian and Turkic from Kazan to Tobolsk: Literary Frontiers in Muslim Inner Asia." In *The Persianate World: The Frontiers of a Eurasian Lingua Franca*, edited by Nile Green, 131–156. Oakland, CA: University of California Press.

Papas, Alexandre. 2010. *Mystiques et vagabonds en islam: portraits de trois soufis qalandar*. Paris: Cerf.

Papas, Alexandre. 2018. *Ainsi parlait le derviche: Les marginaux de l'islam en Asie centrale, XVe–XXe siècle*. Paris: Cerf.

Papas, Alexandre, and Marc Toutant. 2026. *Sufi Allahyar, La Fermeté des faibles: Traité versifié de soufisme centrasiatique*. Paris: Les éditions du Cerf. Academia.edu manbasi

Rashidov, Z. F. 2022. "'Sabotul ojizin' sharhlari." *Oltin bitiglar* 2: 42–54.

So'fi Olloyor. 1991. *Sabotul-ojizin*. Nashrga tayyorlovchi Rashid Zohid. Toshkent: Ziyouz elektron kutubxonasi. Ziyouz elektron kutubxonasi

Toutant, Marc. 2015. "La réponse du poète chaghatay Nawā'ī au poète persan Niẓāmī." *Cahiers d'Asie centrale* 24: 81–103.

Toutant, Marc. 2016. *Un empire de mots: Pouvoir, culture et soufisme à l'époque des derniers Timourides au miroir de la Khamsa de Mīr ʻAlī Shīr Nawā'ī*. Leuven: Peeters.